

BUXORO VOHASI TUPROQ VA IQLIM SHAROITIDA JO'XORI NAVLARINING MORFOLOGIK TAHLILLARINING OLIB BORILISHI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7833913>

Jo'rayeva Ozoda Toirovna

Buxoro davlat universiteti Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya.

Jo'xori- g'alladoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simlik turkumi, don va yem xashak ekini. Vatani Markaziy Afrika. Donli jo'xorining ildiz tarmog'i popuk ildiz, asosiy qismi yerning haydalma qatlamida rivojlanadi, ayrim ildizlari esa 2.5 m chuqurlikkga kirib borad. Poyasi somon poya, bo'yi 0.5-7 m gacha, o'rtacha 2-3 m, poyaning ichi g'ovak parenxima to'qimalari bilan to'lgan. Poyasi 8 tagacha. Bargi kenh, 20-25 ta bo'ladi. To'pguli ro'vak, uzunligi 15-60 sm, yon shoxlari uchlarida 2 ta boshqoqcha chiqaradi, bittasi meva hosil bo'ladi, chetdan changlanadi. Doni yumolo, tuxumsimon rangi oq sariq yoki sariq. Doni tarkibida 61- 84%kraxmal, 10-15% oqsil(lizin), 1.5- 6.5% gacha yog' bor.

Kalit so'zlar.

Urug'lar unuvchanligi, transpiratsiya jadalligi, qovushqoqlik konsentratsiyasi, SPAD birlik.

Kirish. O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strtegiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si tasdiqlanganligi sababli, oziq-ovqat mahsulotlarini xavsizligini ta'minlash va istimol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutildi. Shu oziq-ovqat sirasiga, jo'xori o'simligi ham eng muhim don ekinlaridan hisoblanib, oziq-ovqat yem-xasha, texnik va agro texnik ahamiyatga ega. Jo'xori donidan un tayyorlanadi, Lekin uning unidan yuqori sifatli non hosil bo'lmaydi. Shuning uchun oqjo'xori uniga 30-50% bug'doy uni qo'shib non tayyorlanadi.

Asosiy qism. Ma'lumki, o'simliklar ustida olib boriladigan tajribalar 2 usulda amalga oshiriladi: dala sharoitida va Laborotoriya sharoitida.



I. Laboratoriya tajribalari 14.04.2022.

Dastlab urug'lar tuvaklarga ekish uchun saralanib olindi va har bir nav kesimida 25 tadan urug'lar tanlab olindi. Navlar: Qorabosh, Sargo masino, Karlik, Samuray, Sambo. Navlarning nomini yozgan holda tuvaklarga urug'lar ekildi. Nazorat va Tajriba shaklida.

20.04.2022. (6 kunlik)

Urug'larning unuvchanligi.

Navlar	Nazorat	Tajriba
Qorabosh	18 ta 72%	20 ta 80%
Sargo masino	25 ta 100%	19 ta 76%
Sambo	11 ta 44%	9ta 36%
Samuray	10ta 40%	14ta 56%
Karlik	10 ta 40%	9 ta 36%

Navlarning 6 kunlik bo'y uzunliklari.

Navlar	Nazorat	Tajriba
Qorabosh	3.1 sm	3.4 sm
Sargo masino	6.8 sm	5.9 sm
Sambo	3.5 sm	3.8 sm
Samuray	3.5 sm	3 sm
Karlik	2.5 sm	2.7 sm

3.05 2022.

PH metr orqali olingan tahlillar navlar kesimida.

PH metr orqali bir vaqtning o'zida 3 xil tahlillarni olishga erishiladi. PH, Light, Moist.

Navlar	Ph	Moist	Light
Qorabosh	7.5	1.6	2000
Sargo masino	7.2	2	1500
Sambo	7.3	1.5	2000

Samuray	7.6	2.2	1000
Karlik	7.1	2.5	2000

4.05.2022

Navlarning bo'y uzunliklari.

Navlar	Nazorat	Tajriba
Qorabosh	30 sm	30sm
Sargo masino	31 sm	33 sm
Sambo	33 sm	35 sm
Samuray	19 sm	20 sm
Karlik	20 sm	22 sm

Jo'xori navlarining xlorifilmtr asbobi yordamida o'simliklarning bargidan olingan tahlillari.

Navlar	Xlorofil SPAD	N	H2O	T (harorat)
Qorabosh T	06.0	01.9	01.3	23.4*
Qorabosh N	04.9	01.5	01.40	23.4*
Sargo masino T	06.7	02.1	01.2	23.3*
Sargo masino N	05.8	01.8	01.3	23.2*
Sambo T	05.1	01.6	01.29	23.4*
Sambo N	05.4	01.7	01.92	23.3*
Samuray T	05.5	01,7	04,06	23.7*
Samuray N	05.6	01,7	04,76	23.6*
Karlik E	04,3	01,3	01,1	23.6*
Karlik T	03,1	00,9	06,57	23.6*



12.05.2022



5.07.2022

Jo'xori navlarining xlorofilmetr asbobi yordamida o'simliklarning bargidan olingan tahlillari.

Navlar	Xlorofil SPAD	N	H2O	T (harorat)
Qorabosh T	27.6	08.8	04.50/1000	26.5*c
Qorabosh N	25.6	08.5	03.60/1000	27.4*c
Sargo masino T	37.0	11.8	04.54/1000	26.7*c
Sargo masino N	36.5	10.5	03.20/1000	26.2*c
Sambo T	34.5	11.0	05.13/1000	27.2*c
Sambo N	23.7	10.4	04.75/1000	26.8*c
Samuray T	31.9	10.2	04.18/1000	27.4*c
Samuray N	27.5	9.8	03.75/1000	26.3*c
Karlik T	31.9	10.2	04.18/1000	27.1*c
Karlik N	30.5	9.8	03.80/1000	27.0*c

25.07.2022

Navlarning bo'y va barg uzunliklari bo'yicha olingan tahlillar

Navlar	Bo'y uzunligi	Barg uzunligi
Qorabosh	230 sm	60 sm
Sargo masino	152 sm	60 sm

Sambo	110 sm	50 sm
Samuray	90 sm	45 sm
Karlik	110 sm	60 sm

Dalaga o'simlik navlarimiz 7.05 2022 da ekildi va hosil 12.09.2022 da olindi. Vigitatsiya davri 110- 120 davom etdi



Sargo masino



Samuray

Xulosa. Maysasi 1°C da nobud bo'ladi, 30-40°C issiqqa chidaydi. Yorug'sevar, qisqa kun o'simligi. Sho'rga chidamli. O'suv davri 75-100 kun. Bahorda (aprel – may) harorat 13-15°C bo'lganda kenh qatorlab ekiladi, ko'chat qalinligi har gektarda 70-100ming tupga boradi. Ekilgan urug'lar 10-15 kunda maysalaydi, 25-30 kundan keyin tuplanadi, 40-50 kunda nav o'rash davriga kiradi, ro'vak chiqarish davri 55-65 kunga boradi, ro'vak chiqarganidankeyin 5-6 kun o'tgach gullaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda jo'xorining 9 navi yetishtiriladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki sargo masino va samuray jo'xori navlari buxoro vohasi tuproq va iqlim sharoitida ekib o'stirish va yuqori hosildorlikga erishish mumkin. Sargo masino yashil massa va don sifatida xalq xo'jalikda foydalanishga tavsiya qilinadi. Bu navimizning SPAD birligi yuqoriligini inobatga olib chorva mollariga to'yimli ozuqa bo'la oladi. Donidan tayyorlangan non mahsulotlari parhez bop hisoblanadi. Buxoro sharoitida hozirgi kundagi garmsellar va shamollarni hisobga olsak chidamlilik va moslanuvchanlik yuqori bo'ladi. Donidan chorvachilik va parandachilikda oziqa sifatida foydalanilsa mahsuldorlik oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ergashovich K. A., Tokhirovna J. O. Ecophysiological properties of white oats //Conferencea. – 2021. – C. 50-52

2. Jo'rayeva O. Sadokda baliq yetishtirish texnologiyasi //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

3. Jo'rayeva O. Sho'rlangan tuproqlarda g'o'zaning o'sish fiziologiyasi //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

4. Jo'rayeva O. Роль фитопланктона в народном хозяйстве //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

5. Jo'rayeva O. Medikal and food properties of algai //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.